

YOSHLARNI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA – AJDODLAR MEROSINING O‘RNI

**A.R. Mirzaev,
O‘zbekiston Respublikasi
Fuqaro muhofazasi instituti dotsenti**

Annotatsiya: maqolada yoshlarning harbiy vatanparvarlik hislarini parvarishlashda ajdodlar me’rosining o‘rni tahlil qilinadi. Ajdodlar me’rosi tarix davomida ko‘plab mamlakatlar va davlatlar tomonidan qo‘llanib kelingan ichki intizom va himoya manbalaridan biri bo‘lib, bu tuyg‘uning rivojlantirilishi vatanparvarlik hissiniv yuzaga keltirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so‘zlar: yoshlar, vatanparvarlik, ajdodlar ruhi, mafkura, kuch-qudrat, erkinlik, siyosat.

РОЛЬ НАСЛЕДИЯ ПРЕДКОВ В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННО-ПАТРИОТИЗМА

**А.Р. Мирзаев,
Республика Узбекистан
доцент Института гражданской защиты**

Аннотация: в статье анализируется роль наследия предков в воспитании военно-патриотических чувств у молодежи. Наследие предков является одним из источников внутренней дисциплины и защиты, используемых многими странами и государствами на протяжении всей истории, и развитие этого чувства играет важную роль в формировании чувства патриотизма.

Ключевые слова: молодежь, патриотизм, дух предков, идеология, сила, свобода, политика.

THE ROLE OF THE LEGACY OF ANCESTORS IN THE MILITARY-PATRIOTIC EDUCATION OF YOUTH

**A.R. Mirzayev,
Republic of Uzbekistan
Associate Professor of the Institute of Civil Defense**

Abstract: the article analyzes the role of ancestral heritage in fostering military-patriotic feelings in young people. Ancestral heritage is one of the sources of internal discipline and protection used by many countries and states throughout history, and the development of this feeling plays an important role in the formation of a sense of patriotism.

Keywords: youth, patriotism, ancestral spirit, ideology, strength, freedom, politics.

KIRISH

Vatanparvarlik – ulug‘tuyg‘u, yuksak ma’naviy qadriyat. Vatanparvarlik tuyg‘usi o‘z-o‘zidan shakllana olmaydi, u inson tomonidan o‘zining ijtimoiy

mansubligini anglay boshlagani, o'zini aniq bir ijtimoiy makonga, uni taqdiriga shaxsiy aloqadorligini anglay boshlaganidan boshlab paydo bo'ladi.

Boshqacha ifodalaganda jamiyatdagi har bir fuqaro, shaxs umumiy, huquqiy jihatdan vatanparvarlikka, vatanparvar bo'lishiga huquqli. Nafaqat ko'zga ko'ringan san'atkor, qo'shiqchi, «yulduz» vatanparvarlik haqida kuylaydi, balki oddiy bog'cha bolasi ham murabbiylar yodlash uchun bergan she'rni yoddan extiros bilan o'qib beradi. Bizning nazarimizda kuylash, she'r o'qish bilan inson vatanparvar bo'lib qolmaydi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Gnoseologik jihatdan vatanparvarlikni bilish murakkab va qiyin jarayon – u inson tomonidan o'zi yashayotgan ijtimoiy zamin tarixini, xalqi o'tmishini, qismati, yuksalishi va tanazzuli sabablarini anglay boshlanishidan kurtak otadi, rivojlanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Ajdodlar merosi shu o'rinda beqiyos o'rin tutadi. Zero, vatanparvarlik milliy o'zlikni anglashga asoslanadi va undan kelib chiqadi. Shu o'rinda taniqli faylasuf – gegelshunos, davlat arbobi, atoqli o'zbek olimlaridan A.Jalolovning «Amir Temur merosidan istiqlolimizni mustaxkamlash yo'lida, ijodiy foydalanish Vatanimizning boy tarixi va nurafshon kelajagini butun dunyoga namoyish etishiga shubha yo'q. Kromvel, Petr 1, Napoleonlar bilan ular mansub bo'lgan xalqlar qay darajada fahrlansalar, biz ham Temur siymosi bilan undan kam bo'lmagan darajada g'ururlanishga haqlimiz» deganda, xaq edi [1]. Uning bu so'zi 1996 yil 28 may kuni O'zbekiston XDP Markaziy Kengashida Soxibquron Amir Temur tavalludining 600 yilligiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy anjumanda yangradi.

Lug'atlarda ta'kidlanishicha “Vatan” arabcha so'z bo'lib, Ona yurt manisini anglatadi. O'zbekiston tarixida vatanparvarlikning yuksak ko'rinishlari kuzatilgan-bu Shiroq va To'maris jasorati, Spitamen qaxramonligi, Najmiddin Qubro, Jaloliddin Manguberdi, Temur Maliklarning bosqinchilarga qarshi matonatli kurashi tillarda doston bo'lgan fidoyiliklaridan bilamiz [2].

Amir Temur va uning sulolasi tarixini bilish yoshlarga o'z buyuk o'tmishi, jahon tarixida iz qoldirgan buyuk ajdodlari haqida faxr va g'urur tuyg'usini shakllantiradi, vatanparvarlik fazilatining shakllanishiga xizmat qiladi.

Milliy mustaqillikka erishish bilanoq yurtboshimiz, birinchi Prezident I.Karimovning o'tmish ajdodlar merosiga e'tibor berish, uni davlat siyosatining muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylantirishi ham chuqur maqsadlarga, birinchi o'rinda mustamlaka va mustabidlik davrlarida o'zbek xalqida so'ndirilgan o'z xalqi, madaniyati, tarixi uchun faxr, g'urur, or-nomus va sha'n tuyg'ularini yana tiklash edi.

O'zbekiston Prezidentining «Tarixiy xotirasiz, kelajak yo'q!» degan shiori xalqimizda, ayniqsa xalq, millat kelajagi – yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan edi. Deyarli 130 yil Turkiston xalqlari, Turonzamin mustamlaka ostida qoldi, «Vatan» degan so'z ta'qiqlandi, «Vatan» so'zi «isyon», «qo'zg'alon» degan so'zlarning sinonimiga aylantirildi. Biroq xalqda, ayniqsa uning ilg'or ziyolilarida Vatan va vatanparvarlik tuyg'usi o'chmadi, ularning asarlarida aks etdi. Alixonto'ra Sog'unining «Vatan qayg'usi», «Turkiston istilosi», Cho'lpon, Fitrat, Maxmudxo'ja Bexbudiy, Abdulla Qodiriylarning vatanparvarlikka, Vatan ozodligiga, mustaqillikni da'vat qiluvchi she'rlari, asarlari bugungi avlodda vatanparvarligimiz tarixini, «Vatan» deb o'z jonini fido qilgan, qatag'onlikka uchragan ajdodlarimiz haqida xolis bilim olishlari uchun tarixiy manba vazifasini o'taydi.

Ajdodlar merosi mustaqil O'zbekiston yoshlarini vatanparvarlik ruhida tarbiya topishida xalq og'zaki ijodi, xalq og'zaki tarixi va she'riyatining ulkan ta'sirli kuchi va salohiyat mavjud. Agar atoqli shoir Erkin Voxidovning yuqorida eslatib o'tilgan «O'zbekim» she'ri milliy o'zlikni anglash, milliy g'ururni tiklash uchun ilhomlantiruvchi tarbiya vositasi bo'lib hizmat qilayotgan bo'lsa, O'zbekiston Qaxramoni, «O'zbekiston Respublikasi Madhiyasi» ning muallifi, otashin shoir Abdulla Oripovning «O'zbekiston» qasidasi vatanparvarlik tuyg'usini anglashga intiluvchi yoshlar uchun «yo'lchi yulduz», ilm sohasida «kompas» rolini bajaradi. Zero, bugun yozma tarix ko'p xollarda xukmdorlar,

amaldorlar yoxud mustamlakachilar va ularning «xizmatkori» bo'lgan tarix navislar tomonidan bitilgan. Masalan, o'quv kitoblarida milliy mustaqillikkacha «Rossiya Turkistonni, O'rta Osiyoni zabt etgan yoki bosib olgan» deyish o'rniga «Rossiyaga ixtiyoriy qo'shib olingan va progressiv ahamiyatga ega» deb yozib qo'yilgan O'zbekiston SSR tarixi (7-8sinf).

Garchi ushbu tadqiqot badiiy-publitsistik bo'lmasa-da, ta'kidlash joiz – she'r ham siyosiy vazifani bajaradi. Vatanparvarligi, Vatanni ulug'laganligi uchun ko'zga ko'ringan shoiru-adiblarni ta'qib qilinishi, qatag'onga mahkum etilganligi siyosiy voqeadir. Tarixda, umuman ijtimoiy fanlarda mustamlakachilarning o'ziga xos «filtrlovchi» vositasi-senzura instituti kunu-tun qattiq ishlar, nima haqida gapirish va yozishgina emas, balki fikrlash va o'ylashni ham oldindan belgilar edi. Bu zamonda erkin nafaqat ilmiy, balki ijodiy tafakkur uchun ham o'rin yo'q edi.

Vatanparvarlik – ma'rifatlik ko'rinishidir. Nodon, sovuqsiz kishida bu yuksak tuyg'u zaif yoki yo'q bo'ladi. Shu ma'noda nemis klassik falsafasining buyuk vakili, idealistik dealektika asoschilaridan Georg Vilgelm Fridrix Gegel: «Ma'rifatli xalqlarning haqiqiy jasorati Vatan yo'lida qurbon bo'lishga tayyor ekanliklarida aks etadi» deganda haq edi.

Ma'rifatli inson o'z xalqi tarixi, madaniyati, axloqi, an'analari va buyuk shaxslarini bilishi, ularning ardoqlashi, soxtalashtirishga urinuvchi hatti-harakatlaridan himoya qilishga tayyor insondir.

«Ilohiy komediya» asarining muallifi Dantening «Bu yerda jonning mustahkam bo'lishligi, qo'rquvning esa maslahatgo'y bo'lmasligi talab etiladi» degan fikrlar shu yerda o'rinli hisoblanadi. «Vatan» – shoirona shirin so'zgina emas, u kerak bo'lsa qonni, jonni talab qiladi. Faqat fidokor kishigina Vatanparvar bo'la oladi. O'zbekiston, uning milliy mustaqilligi vatanparvarlik va fidoyilikni talab qiladi. Bu-arziydigan hayot va taqdirdir. Har bir yosh yigit-qiz buni anglashi va Vatan qadriga yeta olishi kerak. Biz Samariyaning «Buyuk matematik, astronom va geograf, hozirgi zamon aljabr (algebra) ilmining otasi Muhammad al-Xorazmiy», «Shayx ur-raisi», «Donishmandlar sultoni», «Tabiblar shohi» kabi buyuk va mu'tabar nomlarga sazovor Sharq Uyg'onish davrining buyuk

mutafakkiri, buyuk alloma Abu Ali ibn Sino, bir necha zamonaviy ilmlarga asos solgan, qomusiy bilimlar sohibi, umumjahon fani va madaniyatiga bebaho xissa qo'shgan Abu Rayxon Beruniy, Ikkinchi Arastu nomi bilan mashhuri jahon, falsafa, musiqa va matematika ilmlari poydevorini tiklagan Forobiy, Navoiy ta'biri bilan aytganda, ko'zi oldida osmon past bo'lgan Mirzo Ulug'bek, islom madaniyati va fani iqlimida juda katta o'rin tutgan Xo'ja Ismoil Buxoriy, Axmad Yassaviy, turkiy adabiyot sultoni – Hazrati Alisher Navoiy, ham qalam, ham jang maydonida ko'rsatgan jasorati bilan mashhur Bobirmirzo shu tuproq farzandlaridir», [3] degan fikriga qo'shilamiz. Ushbu ajdodlar merosi, ayniqsa Amir Temur merosi yoshlar vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda beqiyos o'rin tutadi [4].

Vatanparvarlik tuyg'usi fidoyilikni talab qiladi, u bilan sinonimdir, dedik. Bu tezisning konkret tasdig'i va misoli yaqin tariximizda otashin vatanparvar, O'zbekiston Fanlar Akademiyasining asoschilaridan (1943y) biri, atoqli faylasuf olim, akademik Ibrohim Muminov qismatidir.

Akademik Ibrohim Muminovning nomi va jasorati vatanparvarlikka bag'ishlangan oltin kitob bo'lsa, uning birinchi sahifasiga uning nomini bitish munosib e'tirof va hurmat bo'ladi. Akademik Ibrohim Muminov o'zbek xalqining buyuk farzandi, ajdodi Soxibqiron Amir Temur haqida bir to'da soxta tarixchilar, sovet tarix ilmi malaylari pozitsiyasiga qarshi tarixiy haqiqatni elon qildi. Bu jamiyatda sarosimalik, ma'naviy parokandalik, hayratlanish kayfiyatini shakllantirdi. Chunki rasmiy tarix kitoblarida Amir Temur bosqinchi, jallod, xalq dushmani, kallakesar va savodsiz qilib tasvirlangan edi. Hatto sovet rassomi Gerasimov Amir Temur ishi deb odamlar kallasidan yasalgan minora tasvirini «ijod» qilgan, jallodning begunox odamni qanday qilib kundaga boshini qo'yib, tanasidan judo qilayotgan ekanligi tasvirini chizgan edi. Xullas, yosh avlod Amir Temur deyishsa jallod, beshafqat shaxs, iblis qiyofasini tasavvur qilishligi lozim edi.

Sho'ro mafkurasi mustamlaka xalqlarni tarixiy xotirasidan judo qilish, manqurtlashtirishdek tuban, qallob, soxta va manfur siyosatni ta'lim va tarbiya

sohasida olib borar, Soxibquron Amir Temurning jahon shumul obro‘ va e‘tibori jang bo‘yicha uning tizzasigacha yeta olmagan Ivan Grozniy (daxshat), Aleksandr Nevskiy, Petr 1 va boshqa podshovachchalarni ulug‘lar, ko‘klarga ko‘tarib maqtar edi. O‘zbek yoshlari tarixda Dmitriy Donskoyning mo‘g‘illarga qarshi Kulikovo jangidan habardor bo‘lishsa-da, Amir Temurning buyuk turk sultoni Boyazid ustidan qozongan g‘alabasidan butunlay behabar edi.

Bobur, Shayboniyxon davlatchiligidan esa faqat Bobirning «Boburnoma» she‘riy to‘plami bor deb o‘ylar edi. Xullas, akademik Ibrohim Mo‘minovning «Amir Temur va uning O‘rta Osiyo madaniyati taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati» to‘g‘risidagi xolisona obektiv tarixiy ma‘nodagi maqolasi chop qilindi. Maqola chiqishi bilanoq Ibrohim Mo‘minovga xushomad qiluvchi va aslida ichidan yoqtirmagan sovet tarixi malaylari maqolani darhol rus tiliga o‘girdilar va rus xomiylariga taqdim etdilar. O‘zlaridan ham «qo‘shib qo‘yish»ni ham unutmadilar. Maqola chiqqan 1973 yili nufuzli nashrlardan «Noviy mir» jurnalida o‘zbek olimi akademik Ibrohim Mo‘minovni millatchilikda, tarixni soxtalashtirishda ayblovchi maqola uyushtirildi, olim Markazko‘mga (O‘zbekiston SSR) «suhbat»ga chaqirildi, u lavozimidan bo‘shatildi. Sovet mafkurasi quturgan, R.Abdullaeva degan tarixchi rahbarlar oshig‘i olchi bo‘lgan bu davrda, jasoratli insonni barbod qilish, uni ezish, tahqirlash oson ish edi. Akademik Ibrohim Mo‘minov safdoshlari ham undan yuz o‘girishdi, sovet «sotsialistik realizm» prinsipiga sodiq qolishdi. Buyuk olim yakkalanib qolgan edi. Uning yuragi bunday iztiroblarga bardosh bera olmadi va 1974 yil 22 iyul kuni olamdan o‘tdi.

Ibrohim Mo‘minov ilmiy jasorati qalblarda qoldi. Bugungi «Temurshunos» olimlar esa zamon o‘zgarib milliy mustaqillik qo‘lga kiritilgandan so‘ng endi birdaniga «vatanparvar»larga aylandilar, tomlab asarlar yaratdilar. Ular faoliyati fanda psevdotarixchilik, ya‘ni soxta tarixchilik deyiladi. Gerodot, Narshaxiy, Ibn Arabshox, Xondamir, Bobur, Temur asos solgan tarixchilik an‘analariga zid, hokimiyatga, uning o‘tkinchi siyosatiga maddohlik qiluvchi subutsiz kishilar faoliyatidir. Shu bois tarix va xalq tarixi mavjud. Keyingisi xalq qalbi va o‘chmas xotirasi bilan bog‘liq, ulardan baxra oladi va abadiiy mavjud bo‘ladi. Bugun,

o'zbek vatanparvaridan tarixda bitilgan barcha narsani haqiqiy deb tushunmaslikni, har bir tarixiy fakti siyosiy kontent-analiz qilish, ya'ni siyosiy fan metod va metodologiyasidan foydalanishni, ratsionalizm tarafdori bo'lishligi talab qilinadi. Ratsional tafakkur va dunyoqarash o'tkinchi, joriy siyosat bilan cheklanmaydi, masalaga tarixiylik va mantiqiylik prinsiplarining ratsional birligi, dialektik o'zaro aloqadorligi prinsipi nuqtai nazaridan qaraydi [5]. Tarix falsafiy tabiatga ega. Tarixiy bilimlarsiz vatanparvarlik tuyg'usi shakllana olmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning xalqimizga ilk bor 2017 yil 22 dekabrda qilgan «Murojatnomasi»da fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda xalq ma'naviy merosining o'rni beqiyos ekanligi alohida ta'kidlandi: «Ma'lumki, qadimiy madaniyat va sivilizatsiyalar chorraxasi bo'lgan yurtimiz zaminidan o'rta asrlarda minglab olimlar, buyuk mutafakkir va shoirlar yetishib chiqqan. Ularning aniq fanlar va diniy ilmlar sohasida qoldirgan bebaho merosi butun insoniyatning ma'naviy mulki hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekistonimizning kitob fondlarida 100 mingdan ziyod qo'lyozma asarlar saqlanmoqda. Afsuski, bu nodir kitoblar hali to'liq o'rganilmagan, ular olimlar va o'z o'quvchilarini kutib turibdi. Ushbu noyob asarlarda bugungi davr o'rta qo'yayotgan juda ko'p dolzarb muammolarga javob topish mumkin» [6].

Hozirgi O'zbekiston zaminida davlatchilik eramizdan avvalgi IV-III-asrlardayoq qaror topgan. Davlat bor ekan, uning siyosati va mafkurasi mavjud. Vatanparvarlik asosan muayyan davlat, mamlakat bilan bog'liq. Davlat, mamlakatni bir butunligi, yaxlitligi kishilarda u mansub bo'lgan jamiyat, xalq, davlat mavjudligini anglashi orqali sodir bo'ladi. Bunga erishish jamiyatda ahloqiy qoidalar, yo'l-yo'riq va an'analarni shakllanishi va amal qilishi bilan bog'liq. Buyuk o'zbek mutaffakiri Alisher Navoiyning «Tarixi muluki Ajam» nomli asar bu xususda nodir ilmiy-etnomadaniy manba hisoblanadi. Aslida «Ajam» degan davlat bo'lmagan. Davlatchilik tarixini chuqur tadqiq va tahlil qilgan o'zbek olimlari X.Boboiev va Z.Gafurovlar takidlashicha «Ajam degani arabchada arabdan tashqari degan ma'noni anglatadi» [7]. Mualliflar ta'kidlashlaricha Ajam davlati miloddan avvalgi IV-III-asrlarda hozirgi Eron va Markaziy Osiyo davlatlari

hududida mavjud bo'lgan «Avesto», qadimgi Xitoy yozma yodgorliklarida xabar berilishicha Turonning eng qadimiy o'lkalari Xorazm, So'g'd, Baqtriya, Parkanada dastlabki davlatlar shakllangan. Ushbu davlatlarning o'ziga xos iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayoti mavjud bo'lgan. 2001 yili qadimgi yozma yodgorlik – zardo'shtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ni 2700 yilligini nishonlashga bag'ishlangan xalqaro konferansiyada e'tirof etilishicha Xorazm, So'g'd, Parkana, Shosh davlatchiligi tarixi Qadimgi Misr, Xitoy, Xindiston, Eron va Yunoniston davlatlari tarixi bilan teng tarixga ega. Qadimshunos olim E.Ziyoev A.Ziyoev, etnomadaniyat fanining taniqli vakili I.Jabbarovlar ta'kidlashlaricha Markaziy Osiyodagi ilk davlatchilik adolat, insonparvarlik, ezgu munosabatlar asosida faoliyat ko'rsatgan. Turkiy qabilalarni birlashtirgan. Bunday davlatlarda shu bois demokratik davlat boshqaruvining ilk ko'rinishlari kuzatilgan. Masalan, turk hoqoni qabila boshliqlarining kengashida saylangan. O'lkalarni hokimlar boshqargan. Shu bois demokratiya, ya'ni xalq hokimiyatchiligi degan g'oya ilk bor yunon mutafakkiri Platonning «Davlat» asarida, so'ng uning shogirdi Aristotelning «Kategoriyalar», «Nikomax etikasi», «Evdemon etikasi», «Katta etika» asarlarida qayd qilinganligi jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan rasmiy e'tirof etilgan bo'lsa-da, ilk davlatchilikka oid Sharq olimlari tadqiqotlari ayni paytda Sharqda ham demokratiyaga o'xshash ijtimoiy institutlar jamiyat hayotining asosini tashkil etgan, degan asosli xulosalar mavjud. Bugun mamlakatimizda demokratik jamiyat va demokratik davlatchilikni qaror toptirishida «mahalla» ijtimoiy institutning ta'siri va o'rniga oid ilmiy izlanish, faktik materiallar isbotlaydi. Turk davlatchiligi davrida Kultegin hoqonligi, uning mafkurasi buni yanada aniq tasdiqlaydi [8].

XULOSA

Amalga oshirilgan tahlil va tarixiy tadqiqotdan shu narsa ayon bo'ladiki, vatanparvarlik «Vatan», demak muayan davlat hokimiyatining, bugungi siyosiy tilda «Siyosiy tizim»ning shakllanishi bilan bog'liq. Taniqli o'zbek siyosatshunosi R.Jumaev bejiz jamiyat tabiatini belgilovchi siyosiy tuzilma jamiyat siyosiy tizimi ekanligini ta'kidlamaydi [9]. Har qanday davlat muayyan siyosiy tizimga

asoslanadi. Bunday siyosiy xrestomatik qoida davlat fanomenining genezisi va evolyusiyasi bilan uzviy bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. A.Jalolov. Mustaqillik mas’uliyati. –T.: O‘zbekiston. 1996, B–97–98.
2. A.Мирзаев. Национальные и общечеловеческие особенности военного патриотизма. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss8/S-pp17-22>
3. Samariya. /Abu Toxirxoja. Buxoro tarixi./ Narshaxiy. Shajaran Xorazmshoxi. Bayoniy Farg‘ona tarixi./ Ibrat. Tarixiyyasse. Taxrir hay’ati.T.Axmadorov va boshqalar./–T.: Kamalov, 1991.–336 b.
4. T. Alimardon. Amir Temur davlat boshqaruvining siyosiy-axloqiy asoslari. – T.: O‘FMJ, 2005.
5. N. Jo‘raev. Tarix falsafasining nazariy asoslari. – T.: «Ma’naviyat» 2008.– B. 463.
6. Sh. Mirziyoev. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilayotgan eng oliy baho. Asarlar, 2–tom.–T. : «O‘zbekiston», 2018.– 82 b.
7. X.Boboev, Z.Gafurov. O‘zbekistonda siyosiy va ma’naviy – m’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti.–T. : «Yangi asar avlodi» 2001. – 38 b.
8. U.Turon . Turkiy xalqlar mafkurasi. –T.: Cho‘lpon nashryoti. 1994. – 104 b.
9. R.Jumaev. Stanovlenie politicheskoy sistema Respubliki O‘zbekistana. – T. : «O‘zbekistan», 1994.